



ATTENTION TO YOUTH EDUCATION IN BEHBUDIY'S SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE

Ilkhom Tuxtanazarov

Senior Lecturer, Associate Professor, Reserve Major

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Behbudi, youth education, Jadidism, patriotism, spirituality, ideological immunity, national values.

Received: 09.03.25

Accepted: 11.03.25

Published: 13.03.25

Abstract: This article analyzes Mahmudkhuja Behbudi's rich scientific and spiritual heritage and its significance in the upbringing of the young generation. It highlights the vital role of the Jadid movement in educating young people as patriotic, enlightened, and independent-thinking individuals. The ideas in Behbudi's works, aimed at nurturing youth in the spirit of patriotism, morality, and science, remain relevant even in today's era of globalization and ideological threats. The article also emphasizes that Behbudi's legacy serves as an essential source for strengthening ideological immunity and preserving national values among the youth.

BEHBUDIY ILMIY-MA'NAVIY MEROSIDA YOSHLAR TARBIYASIGA E'TIBOR

Ilxom To'xtanazarov

katta o'qituvchi, dotsent, zahiradagi mayor

FarDU

Farg'onan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Behbudiy, yoshlar tarbiyasi, jadidchilik, vatanparvarlik, ma'naviyat, mafkuraviy immunitet, milliy qadriyatlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning boy ilmiy-ma'naviy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil etilgan. Jadidchilik harakati, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvar, ma'rifatli va mustaqil fikrlaydigan shaxslar qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etgani yoritilgan. Behbudiyning asarlarida yoshlarni ilm-fanga, odob-axloq, vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashga qaratilgan g‘oyalari bugungi globallashuv va mafkuraviy tahdidlar davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ta’kidlangan. Shuningdek, maqlolada yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish va milliy qadriyatlarni asrashda Behbudiyning merosi muhim manba ekanligi ko‘rsatiladi.

ВНИМАНИЕ К ОБРАЗОВАНИЮ МОЛОДЕЖИ В ОБЛАСТИ НАУЧНОГО И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ БЕХБУДИЙ

Ильхом Тохманазаров

*Старший преподаватель, доцент, майор запаса
Ферганского государственного университета
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бехбуди, воспитание молодежи, джадидизм, патриотизм, духовность, идеологический иммунитет, национальные ценности.

Аннотация: В данной статье анализируется богатое научное и духовное наследие Махмудходжи Бехбуди и его значение в воспитании молодого поколения. Подчёркивается важная роль джадидского движения в формировании патриотичной, просвещённой и независимо мыслящей молодёжи. Отмечается, что идеи Бехбуди, направленные на воспитание молодёжи в духе патриотизма, нравственности и стремления к науке, не утратили своей актуальности даже в эпоху глобализации и идеологических угроз. Также подчёркивается, что наследие Бехбуди является важным источником для укрепления идеологического иммунитета и сохранения национальных ценностей среди молодёжи.

KIRISH

Bugungi axborotlashgan informatsion jamiyatda Vatan, millat vatanparvarlik va millatparvarlik tushunchalari har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Har bir jamiyat uchun o‘zlikni saqlash, zararli g‘oya va mafkuralarning ta’siridan himoyalanish bilan bog‘liq yangi muammolar paydo bo‘ldi. Bunday sharoitda yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, yet mafkuralar ta’siriga tushib qolishdan asrash eng dolzarb masalalardan biridir.

Azaliy milliy qadriyatlar, ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish birlamchi vazifadir.

Avvalo, “Ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, ekstremizm, missionerlik kabi illatlardan yoshlarni asrash, ularning ta’limtarbiyasiga har bir shaxs mas’ul ekanini hech qachon unutmaslik kerak. Bu borada asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarga, ajdodlarning boy ma’naviy merosiga tayanish lozim [1].

“Bir haqiqatni hech qachon unutmeylik: buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” [2], – deb alohida ta’kidlaydi, prezident Sh.Mirziyoyev.

Mamlakat chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida o‘zining ko‘plab osori-atiqalaridan, milliy-ma’naviy boyligidan judo bo‘ldi. Millatni butunlay mahv bo‘lish, Vatanni butkul oyoqosti etilishdan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadidlar nomi bilan tarixga kirgan milliy ziyolilar zimmasiga tushdi.

“Chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi” [2]

Jadidlarning eng ulug‘ g‘oyasi, eng ulug‘ maqsadi Turkistonda milliy mustaqil davlatchilikni qayta tiklash edi. Bu yo‘lda ular xalqni, avvalo, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirishni ustuvor maqsad deb bilishdi.

Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan jadidchilarning etakchisi, Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqillik g‘oyasining etakchi bayroqdori – Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z umrini millat ravnaqi, xalq farovonligi, mamlakat mustaqilligi uchun baxsh etgan buyuk ma’rifatparvardir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidan chuqur diniy ta’lim oladi va 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi va muftilik darajasiga ko‘tariladi [2].

Behbudiy millat ravnaqi, uning yuksalishi va taraqqiyoti uchun ilm-fan naqadar muhim ahamiyat kasb etishini qalban chuqur his qilar edi. Buning uchun, avvalo, yangi maktablar ochish, bolalar uchun darsliklar tayyorlash lozim edi. Samarqand shahrida Siddiqiy Ajziy, va Abdulqodir Shakuriy bilan birga yangi usul maktablarini tashkil etadi. Yangi usul maktablari

uchun “Savod chiqarish kitobi”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Qisqacha umumiy geografiya”, “Kitobatul atfol”kabi darsliklar chop ettiradi.

Ma’rifatparvar o‘zining qator asarlari, maqola va xotiralarida yoshlarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi. Ular mamlakatning, xalqning ertangi kunida muhim ahamiyatga egaligini uqtiradi.

Uning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida yoshlarni mamlakat tarixi, buyuk alloma va mutafakkir bobolarning asarlarini o‘qib-o‘rganish, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan erkin foydalanish, etuk kasb-hunar o‘rganish, Vatani va diniga xizmat qilish, komil inson bo‘lib taraqqiy etish uchun to‘rtta tilni bilish lozimligi ta’kidlanadi [4].

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatda yoshlarni har taraflama chuqur bilimga, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashlariga alohida ehtibor berib kelinmoqda. Zero: “Yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta’kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta’lim olayotganko‘plab o‘quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar. Bunday zukko va bilimdon farzandlar bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Navbatdagi muhim vazifa – mana shunday farzandlar orasidan yangi avlod Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek va Navoiylarini tarbiyalab, voyaga etkazishdan iborat” [1. 253], – deb ta’kidlaydi Prezident Sh.Mirziyoyev.

Mahmudxo’ja Behbudiyning “A’molimiz yoinki murodimiz”, “Bizni kemiruvchi illatlar” kabi maqolalarida esa xalqning to‘y va ma’rakalarini tanqid qiladi. Ulardagi isrof garchilik, manmanlik, obro‘ orttirish ortidan keladigan turli salbiy holatlardan tegishli xulosa chiqarish lozimligini uqtirishga harakat qiladi. “To‘y va ma’raka qilunsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilunsun, mumkin qadar kichik qilunsun, ortuqcha pul ila bolalar o‘qitulsun” [4.161], – deb yozadi.

M.Behbudiy yoshlarning ta’lim-tarbiyasida “yangi usul” maktablari va ularda ta’lim beradigan muallimlar sonini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratgan. Maorif tizimini isloh qilmagan millat “dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas”[5]ligini ta’kidlaydi. Uning maktab va muallimlar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki zamonaviy bilim va kasb-hunar uchun poydevor avvalo, maktablarda va ularda tahsil beradigan ustoz-murabbiylarga bevosita bog‘liq ekani hech kimga sir emas.

Uning “Yoshlarga murojaat”, “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolalarida ham yoshlarga nasihat qilib ularni o‘z sohalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishga, yangi usul maktablarini tashkil etishga, ularda tahsil beradigan zamonaviy bilimga ega muallimlarni ko‘paytirish lozimligiga urg‘u beradi[4. 169-177].

Behbudiyning Vatan, millat oldidagi yana bir muhim xizmatlaridan biri shundaki, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi. Vatan tarixini chuqr bilish lozimligiga urg‘u beradi. O‘zlikni anglashni muhim biladi. “Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmayturgonlarni qul-marquq derlar”, – deb yozadi “Sart so‘zi majhuldur” maqolasida.

Bir haqiqatni anglab olish kerak: milliy tarixni xalqqa, aniqsa, yoshlarga milliy ruhda etkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi.

Yoshlarni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish zarur [1. 288].

Farzandlar qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat,adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, ajdodlar, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san’atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [1. 328].

Jadid adabiyotida dramaturgiya, ya’ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko‘zga tashlanadi. Jadid g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’siri kuchli bo‘ldi [6].

Behbudiyning “Padarkush” dramasi millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda juda katta o‘rinni egallash bilan birga, professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda tarqqiy etishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ushbu asarning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratilsa, jaholat va nodonlik ham otaning, ham bolaning umriga zomin bo‘lganini ko‘rish mumkin. Behbudi yanan millatni jaholat va nodonlikdan uyg‘otishga, ularning salbiy oqibatlardan ogoh bo‘lishga, ilm-ma’rifat insonni, millatni yorug‘ kunlar sari etaklashiga ishontirishga urinadi.

Bugungi kunda yoshlarda vatanparvarlik, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini oshirish, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, hozirgi “axborot xurujlari” eng yuqori darajaga ko‘tarilib borayotgan bir davrda har qachongidan ham muhim sanaladi.

Shuningdek, ularni axloqiy qarashlarini buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ko‘rinishlaridan, umumiyl qilib aytgandazarlar va yet g‘oyalar ta’siridan himoya qilish zarur.

Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangidan-yangi, buyuk

imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi kerak. Yoshlarni dushman qo‘liga berib qo‘ymasdan, o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim[7].

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirib, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlар sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratib berilmоqda.

Shu narsani unutmaslik lozimki, oilada, ta’lim muassasalarida, jumladan, maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tizimi – yoshlarni har tomonlama o‘sib-ulg‘ayishlarida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham aynan shu davrda yoshlarni bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlari uchun etarli imkoniyat yaratib berish muhim omil hisoblanadi.

Ana shunday yorug‘ kelajakni, avvalo, sizdek azmu shijoatli, jo‘shqin orzu-intilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan, hech kimdan kam bo‘lmaydigan navqiron avlod – butun O‘zbekiston yoshlari barpo etadi”[7].

Mamlakatda yoshlар ma’naviyatini yuksaltirish, ularda milliy ma’naviyatga hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Ularni ma’nан etuk, jismonan sog‘lom, barkamol avlod sifatida voyaga etkazish masalasi har qachongidan ham yuqori darajaga ko‘tarilib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradigan, o‘zlarining yovuz va g‘arazli maqsadlarini ilgari surayotgan turli guruhlar faoliyatidan ham ogoh bo‘lish, ularning domiga tushib qolmaslikka harakat qilish darkor. Ularning harakatlari, ilgari surayotgan qarashlari natijasida butun insoniyat ma’naviy tanazzulga uchramoqda. Ma’naviy tanazzul muammosi butun bashariyatni (aniqrog‘i ongli bashariyatni) tashvishga solganiga ancha bo‘ldi. G‘arbda ham, Sharqda ham bu borada juda ko‘p fikrlar bildirilmoqda, mulohazalar ilgari surilmoqda.

Mamlakatda 2016- yil yangi tahrirda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqining tashkil etilishi mamlakatda o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Hidisda “Vatanni sevmoq imondandir” deyilgan. Ya’ni imoni but, vijdoni pok har bir inson Vatanini sevadi, uni g‘animlar ko‘zidan asraydi, uning ozodligi va hurligi uchun doimo

kurashadi. Har birbarkamol inson Vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtning ozodligi va obodligi, mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Mashhur mutafakkir Mavlono Fuzuliy shunday deydi: “Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo‘lar edim”.

XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadidlar yoshlarni bilimli, ma’rifatli, o‘z xalqiga xizmat qiladigan, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, ular tomonidan yangi usul maktablari tashkil etildi, ko‘plab gazeta va jurnallar chop ettirildi, milliy teatr faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zlarining qator asarlarida yosh avlodga to‘g‘ri tarbiya va ta’lim berishda nimalarga e’tibor berish kerak ekaniga alohida urg‘u berishgan.

Ular qatorida “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” nomi bilan tanilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) va mashhur pedagog, ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy (1878-1934) alohida ajralib turadi.

M.Behbudiy – dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi sifatidatanilgan. Bir necha marta Arabiston, Misr, Turkiya va Rossiyaning yirik shaharlariga sayohatga chiqadi. Sayohatlari davomida yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘yadi. Samarqandda Siddiqiy Ajziy va Abdulqodiriy Shakuriy bilan birga yangi usul maktablarini tashkil etadi.

Yangi maktablar uchun «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarishkitobi», 1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy» («Qisqacha umumiyy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908) kabi darsliklar chop ettiradi.

M.Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasini va “Oyina” jurnalini chiqara boshladi. U nashriyot va o‘z nomi bilan ataluvchi kutubxona tashkil etgan. Gazeta va jurnalda millat va yurt dardi, xalqni ma’rifatli qilish, erkinligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan dolzarb maqolalar chop etilardi. Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib etardi[8].

A.Avloniy o‘z qarashlarini “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Osiyo” kabi gazetalar orqali xalqqa etkazishga intilgan. Ushbu gazetalar nashr etilishi ta’qiqlangandan so‘ng bir nechta yangi usul maktablarini tashkil etgan va o‘zi ham ushbu maktablarda dars bergen. Shu bilan birga maktablar uchun bir nechta darsliklar chop ettirgan. Jumladan; “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabilar. Avloniy tomonidan tashkil etilgan maktablarda bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ularga ham zamonaviy bilimlar berish, ham milliy axloqiy masalalarga alohida e’tibor qaratilgani bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bilim olishga imkon bo‘lmagan, ota-onasiz bolalarning bilim olishi, savod chiqarishiga bevosita

yordam berish maqsadida 1909 yil “Jamiyati xayriya” tashkilotini tashkil etgani muhim ahamiyatga ega[9].

Behbudiy va Avloniy o‘z asarlari orqali yosh avlodni bilim olishga, o‘z vataniga munosib xizmat qilishga chaqiradi. To’g’ri tarbiya va ta’lim orqali har qanday muammoni echish mumkinligini sodda va ravon tilda bayon etib beradi. “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohatiyoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” [10], – deydi Avloniy.

“Vatan kelajagi, xalqning ertangi kuni, mamlakatning jahon hamjamiatidagi obro‘-e’tibori avvalo yoshlarning unib-o‘sib ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liq” [11. 3].

A.Avloniy o‘z vatanini sevadigan, ardoqlaydigan yoshlarni yaxshi xulq sohibi sifatida ko‘radi. Yaxshi xulq sifatida esa quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi: diyonat, g‘ayrat, qanoat, shioat, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoq va boshqalar.

Yaxshi xulqlar sohibi bo‘lgan yoshlar o‘z vatanlarini nafaqat avaylab-asrashlari, balki shu yurt ravnaqi uchun xizmat qiladigan, uning rivojlanishi uchun o‘zining bor imkoniyatlarini sarflaydigan insonlar bo‘lib voyaga etishi shubhasiz.

Abdulla Avloniyning quyidagi fikri e’tiborga molik: “Yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o‘yin-kulgu, safsata moloya’ni (ma’nosiz) kabi behuda so‘zlar ila o‘tkarmay, har xil kitob, gazita va jurnallarni o‘qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozim” [11. 60].

Shunday ekan, haqiqiy vatanparvar insonlarni tarbiyalashdagi eng muhim omillar sifatida yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalasiga alohida e’tibor berish zarur.

Behbudiy o‘quvchilarining o‘z Vatanlari tarixini o‘rganishlariga alohida e’tibor beradi. Bu ularning milliy ongini uyg‘otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qiladi”, – deydi. “O‘z urug‘i otini bilmagan, etti otasini tanimagan kishi – qul-manqurtdir”, – degan so‘zları milliy o‘zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega[12].

Jadid adiblarining qarashlarini umumlashtirib, yoshlarni vatanparvar insonlar qilib voyaga etkazish uchun quyidagilarga alohida ahamiyat qaratilganini ta’kidlash joiz:

Birinchidan: har bir ota-onan farzand tarbiyasida chuqur mas’uliyatni anglagan holda e’tibor qaratishi zarur;

Ikkinchidan: maktabgacha ta’lim muassasalari va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar hamda pedagoglar har bir bolaning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarishda jonbozlik ko‘rsatishlari, shuningdek, har bir bolaga bo‘lajak shaxs sifatida qarashlari kerak;

Uchinchidan: ota-onalar o‘z farzandlarini yoshlikdan jismonan baquvvat va kuchli qilib

tarbiyalash uchun ularga sog‘lom turmush tarziga, shaxsiy gigienaga va o‘z vaqtida to‘g‘ri ovqatlanishga ma’suliyat bilan etarlicha shart-sharoit yaratib berishi lozim;

To‘rtinchidan: yoshlarni o‘z Vatani tarixi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida muzeylarga, tarixiy shaharlarga sayohatlarga olib borish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Shu narsani unutmaslik lozimki, oilada, ta’lim muassasalarida, jumladan, maktabgacha ta’lim va umumiyl o‘rta ta’lim tizimi – yoshlarni har tomonlama o‘sib-ulg‘ayishlarida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham aynan shu davrda yoshlarni bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun etarli imkoniyat yaratib berish muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli ham farzand tarbiyasiga faqat bir kishi yoki qaysidir tashkilot yoxud muassasaning ishi sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri. Bugungi yoshlari jamiyatning, vatanning ertangi egalaridir. Ularga jamiyatning har bir a’zosi qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat’iy nazar, hech qachon loqaydlik bilan munosabatda bo‘lmasligi kerak. Chunki, “har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma’rifatiga, hunar va san’atiga bog‘liq”[13].

Bugungi O‘zbekiston yosh avlod vakili To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Bobur singari sarkardalar, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg‘oniy, Buxoriy, Termiziy va boshqa ko‘plab buyuk ajoddlarning munosib davomchilari bo‘lishlari uchun bugun ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat berish darkor.

Shuning uchun ham dunyoda globallashuv jarayoni borgan sari kengroq tus olib borayotgan hozirgi sharoitda iqtisodiyot etakchi mavqeni egallayotgani kabi madaniy hayot, shuningdek, ta’lim-tarbiyaning ham muhim ahamiyat kasb etayotgani ayni haqiqatdir. Shu boisdan tarixga nazar tashlansa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda xalqning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy tafkkuri, ilg‘or qarashlarining yaqqol ifodasi sifatida jadidchilik[14] harakatining yuzaga kelib, faol vamurakkab hayot tarzini boshidan kechirganini eslash maqsadga muvofiqdir. Chunki jadidchilik marifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo‘lib, uning namoyondalari o‘lkani qoloqlikdan olib chiqish, milliy mustaqillikka erishish yo‘lida fidoyilik namoyon etishdi[15].

Quyidagilani o‘lkada jajadidchilikning vujudga kelishiga asosiy sabablar sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin: bir tomondan, so‘nggi o‘rta asrlardan beri saqlanib kelayotgan iqtisodiy-xo‘jalik va madaniy hayotdagи qoloqlik, diniy mutaassiblik; ikkinchi tomondan esa Chor Rossiyasi mustamlakachiligi asoratiga tushib qolgan o‘lkadagi og‘ir ahvol edi.

Jadidlar o‘lkani ana shunday tanazzuldan, mustamlakachilik sharoitidan olib chiqish,

taraqqiy toptirishning muvofiq yo‘li – xalqqa, yosh avlodga zamonaviy ta’limni etkazishdir, deb bilishdi. Ya’ni, “Jadidchilik harakati deb nom olgan oqim vakillari mamlakat, xalqning mustaqilligi uchun, birinchi navbatda maorif va talim-tarbiyani tubdan o‘zgartirish, yangi maktablar tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy o‘ringa ko‘tarishdi”[16].

Jadidlar o‘z faoliyatida jahon taraqqiyoti tajribalaridan ham foydalanishgan. Biroq taqlid bilan emas. Zero: “Taqlid esa taraqqiydan uzoq”, – deb ta’kidlaydi Shohid Ehson. Yana: “Ma’naviyatni na yolg‘uz G‘arbdan kelgan, nada yolg‘uz Sharqdan kelgan ziyo yorug‘lata olur. Balki har ikkisining birlashmog‘i bilan hosil bo‘lgan bir zo‘r ziyo yorug‘lata olur”[17], – deya qayd etgan edi.

Taraqqiyotga erishuv yo‘lida bajarilishi lozim ishlarning boshida avvalo, ta’lim masalasi turishini alohida ta’kidlab ko‘rsatishgan. Bunga misol qilib 1914 yilgi jadid matbuotida chop etilgan “Taraqqiyatparvarlik” maqolasida “Har bir millatning taraqqiyisi ilm – sanoat – tijorat – ziroatdan boshlanadi”[18], – deyilgan so‘zlarning keltirilganini aytsa bo‘ladi. Bundan shu narsa ko‘rinadiki, millat taraqqiyotining shartida dastlab ilm, yani ta’lim-tarbiya ishi turganini ta’kidlashgan. Jadidchilik harakatida faol bo‘lgan taniqli siymolar – Ismoilbek Gaspirali, Ahmad Zaki Validiy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Asadulla Xo‘jaev, Fayzullo Xo‘jaev, Ashurali Zohiriy, Po‘lat Soliev, Is’hoqxon Ibrat va boshqalar Vatan va xalq istiqboli yo‘lida jonkuyar bo‘lishdi. Ularning deyarli barchasi musulmonlarning sanoat, hunar, ilm va siyosatda boshqa millat vakillaridan ortda qolganliklarining muhim sababi uzlusiz zamonaviy maktablarning yo‘qligidan deb bilishdi. Bu borada yana Hoji Mu‘in Shukrulloning quyidagi misralarini keltirish o‘rinli: “Millatning taraqqiyisi aning avval muntazam maktablaridan boshlanur. Zotan insonning saodati maktab tarbiyasidan vujudga kelmasmi? Til va milliy adabiyot, din va axloq talimining o‘rnini maktab bo‘lganidan, hayot va saodat basharining eshigi ilgiz maktabdur”[19], – deb yozgan edi. Shu tariqa jadidlar Turkiston kelajagi bo‘lgan yosh avlodning milliy siyosiy ruhda kamol toptirish maqsadida, ular uchun o‘zlar hisobidan zamonaviy ko‘rinishdagi yangi usul maktablarini ochishdi. Masalan, XIX asr oxirida Turkistonda Salohiddin domla (Qo‘qon, 1899 yil), Shamsiddin domla (Andijon, 1899 yil), Mannon Qori (Toshkent, 1899 yil) tomonidan dastlabki yangi usul maktablari ochilgan. Maktablar faoliyatini XX asr boshida Munavvar Qori Abdurashidxonov, A.Avloniy, M.Behbudiy, So‘fizoda, I.Ibrat, Hoji Mu‘in, Hamza va boshqa ko‘plab ma’rifatparvarlar davom ettirib, yoshlarni dunyoviy bilimlarni chuqur egallash barobarida diniy ilmlarga ega bo‘lish, milliy istiqlol g‘oyalari bilan shakllantirish, mamlakat va millat ravnaqi uchun kurashadigan qilib tarbiyalashga e’tibor qaratishdi. Jadidlar harakati ta’sirida Turkiston maorifi tizimi tubdan o‘zgardi, lekin oldinda qator muammolar yotardi.

Ziyolilar va yosh o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish maqsadida kitob do‘konlari, kutubxonalar tashkil etishga kirishishdi.

Bir so‘z bilan aytganda, jadidchilik ma’rifatparvarlik harakati XIX asrda vujudga kelgan ommaviy ma’rifiy harakat hisoblanadi. Jadid so’zi arabcha “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakatining bosh g’oyasi xalqni ma’rifatli qilish orqali mustamlaka zulmidan ozod qilishga qaratilgan ma’rifatparvarlik harakatidir. Bu harakatning yorqin namoyondalari Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Isoqxon Ibrat, Sadriddiy Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqa bir qator ziyolilar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2021. – B. 277.
2. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. www.uza.uz
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Ma’naviyat. 2002. – B. 218.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. (Tuzatilgan va to‘ldirilgan 3-nashr). – T.: Ma’naviyat. 2006. – B. 153.
5. Xaitov B. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda jadid adiblarining o‘rni. Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi. 2020. №11. B.164-168.
6. Rahimov M., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. – T.: O‘zR FA Fan. 2019. – B. 319.
7. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston. 2017. – B. 125.
8. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. – T.: Iqtisod-moliya. 2016. – B. 227.
9. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-jild. T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 73.
10. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Ma’naviyat. 2006. – B. 36.
11. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2008. – B. 3.
12. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. – T.: Iqtisod-moliya. 2016. – B. 226.
13. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma’naviyat. 2006. – B. 50.
14. Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug‘at. – Toshkent, Sharq. 2000. – B. 48.
15. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan, akad. M.Xayrullaev tahririda, Toshkent, O‘zbekiston. 1995. – B. 163.

16. Mustafaeva N. Turkiston jadidlari qarashlarida ta'lim-tarbiya masalalari. O'zbekiston tarixinining dolzARB masalalariga yangi chizgilar. Davriy to'plam, №2, Toshkent, Sharq. 1999. – B. 98.
17. Shohid Ehson, Biz va maorif, Haqiqat, 1922 y. 1-son, – B. 5-6.
18. Sadoi Farg'ona. 1914 y. №79, 2 noyabr, – B. 3.
19. Hoji Muin Shukrullo. Yoshlarga murojjat, – Samarqand, 1913. 9 avgust, 34-son.